

O'zbekiston va Tojikiston suv energetikasi masalalarini muhokama qildi



O'zbekistonga Tojikiston energetika va suv resurslari vaziri o'rinbosari tashrif buyurdi.

16-noyabr kuni O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov Tojikiston energetika va suv resurslari vazirining birinchi o'rinbosari Sulton Rahimzodani qabul qildi, [xabar berdi](#) TIV matbuot xizmati.

Muloqot davomida Markaziy Osiyo mintaqasida suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish masalalari nuqtai nazaridan O'zbekiston-Tojikiston munosabatlari yuzasidan fikr almashildi. Boshqa tafsilotlar xabar qilinmadi.

Xuddi shu kuni TIVda Tojikiston tashqi ishlar vaziri o'rinbosari Mahmadsharif Haqdod ham [qabul qilindi](#).